

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MATEMATIKA

S.S.Jo'raboyev, M.X.Abdumatalova

Tengsizliklarni isbotlashda ehtimollar nazariyasi elementlaridan foydalanish metodikasi 13

Sh.T.Karimov, J.J.Jahongirova

Teskari masalalarni yechishning chekli ayirmalar sxemasini teskarilash usuli 18

B.M.Mamadaliev, M.I.DavlatboevaAbout geometry on subspaces in 2R_5 22**A.O.Mamanazarov, Y.B.Djuraeva**

The existence of the solution of a boundary value problem for the benjamin, bona and mahony equation including the hilfer fractional differential operator 27

A.M.Mirzaqulov

Kompyuterli matematik modellashtirish asoslari 33

A.O.Mamanazarov, D.R.Ibrohimova

Vaqt yo'nalishlari turlicha bo'lgan parabolo-giperbolik tenglama uchun chegaraviy masala 38

FIZIKA-TEXNIKA

V.R.Rasulov, B.B.Axmedov, I.A.Muminov

Elektronlarning energiya spektrini Kroning va Penni usuli yordamida hisoblash 43

M.M.Sobirov, M.M.Kamolova, Q.Q.Muhammadaminov

Atmosferadagi quyosh nurlanish oqimi maydonini shakllanishiga begona aralashmalarning ta'siri 49

M.M.Sobirov, J.Y.Roziqov, Q.Q.Muhammadaminov

Yarim cheksiz o'lchamdag'i kristallarda qutblangan nurlanish oqimini ko'chirilishi 55

V.R.Rasulov, I.A.Muminov, G.N.Maqsudova

Xoll effektini brillyuen zonalari nazariyasi yordamida o'rganish 60

M.M.Sobirov, V.U.Ro'ziboyev

Yer sirtidan qaytgan quyosh nurlanish oqimini atmosferadagi nurlanish maydoniga ta'siri 64

G'.R.Raxmatov

Infragizil quritishning mahsulot sifat kattaliklariga ta'siri 70

V.U.Ro'ziboyev

"Bipolar tranzistorlarni ularning kuchaytirish xususiyatlarini o'rganish" laboratoriya ishida arduinodan foydalanish 75

J.Y.Roziqov

Quyosh nurlanishining atmosferada yutilishi va sochilishi. Zaiflashish qonuni 82

O.K.Dehkonova

Fizika ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish 86

Q.I.G'aynazarova, T.M.Azimov

Uchlamchi qotishmalarning istiqbollari 98

B.U.OmonovBi₂Te₃/Sb₂Te₃ yarimo'tkazgich yupqa pardalarning termoelektrik xususiyatlari 103**K.E.Onarkulov, G.F.Jo'rayeva**

Afk elementlarining tuzilishi va xususiyatlarining bog'lanish o'rganish 109

З.Хайдаров, Д.Ш.Гуфронова, С.Х.Мухаммадаминов

Исследование преобразовательных и выходных характеристик системы полупроводник – плазма газового разряда с дополнительным сеточным электродом ... 116

M.Kholdorov, G.Mamirjonova

Achievements in the dehydration of fruits and vegetables and the advantages of the methods used 121

M.Kholdorov, G.Mamirjonova

Electronic conduction phenomena observed on the surface of semiconductors and metals... 124



УО'К: 621.365.

INFRAQIZIL QURITISHNING MAHSULOT SIFAT KATTALIKLARIGA TA'SIRI
ВЛИЯНИЕ ИНФРАКРАСНОЙ СУШКИ НА КАЧЕСТВЕННЫЕ РАЗМЕРЫ ПРОДУКЦИИ
THE INFLUENCE OF INFRARED DRYING ON THE QUALITY SIZES OF PRODUCTS

Raxmatov G'ulomjon Raxmonberdiyevich

Farg'ona davlat universiteti, t.f.f.d., PhD

Annotatsiya

Maqolada qishloq ho'jalik maxsulotlarini infraqizil quritish qurilmasida eksperimental tanlab olingen namunalar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinib, namunalar infraqizil quritish qurilmasida quritilgan. Qurilmaning ayrim texnik va sifat kattaliklari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье проанализированы данные об экспериментально отобранных образцах сельскохозяйственной продукции в аппарате инфракрасной сушки, а также о высушивании образцов в аппарате инфракрасной сушки. Проанализированы некоторые технические и качественные характеристики устройства.

Abstract

The article analyzes data on experimentally selected samples of agricultural products in an infrared drying apparatus, as well as on the drying of samples in an infrared drying apparatus. Some technical and qualitative characteristics of the device are analyzed.

Kalit so'zlar: nurlanish, quritish, keramika, kvars naycha, issiqlik sig'imi, issiqlik almashinuvi, konveksiya.

Ключевые слова: радиация, сушки, керамика, кварцевая трубка, теплоемкость, теплообмен, конвекция.

Key words: radiation, drying, ceramics, quartz tube, heat capacity, heat transfer, convection.

KIRISH

Meva-sabzavotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatlari saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo'yicha amaliy, ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb masala hisoblanadi. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2023 yil 5-apreldagi PQ-113-son "2023-yilda Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori oziq-ovqat sanoatini, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jalik mahsulotni quritish, qayta ishlash darajasi turlicha, dastlabki qayta ishlash yoki chuqur qayta ishlash bo'lishi mumkin. Dastlabki qayta ishlashga quritish kabi oddiy amaliyotlar hisoblansa, chuqur qayta ishlash mahsulotga bir necha bosqichlarda ishlov berishdir, ya'ni konservatsiya qilish, qadoqlash kabi amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Chuqur qayta ishlash usulida mevani quritishni oladigan bo'lsak bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat: o'rik (turshak) quritish. O'rikni quyidagi navlari turshakbopdir: Yubileyni Navoiy, Ko'rsodiq, Komsomolskiy, Isfarak. Turshak danagi bilan quritilgari o'rik. Olib kelingan mevalar olchamiga qarab navlarga ajratiladi (saralanadi). Shu maqsadda har xil kalibrash mashinalaridan foydalaniladi. O'rikni yetilish darajasiga qarab saralanadi, xomashyon qayta ishlash-dudlash, quritish rejimi mevalarning yetilish darajasiga uzviy bog'liq hisoblanadi.

Quritiladigan o'rik chang va tuproqdan tozalash uchun yuviladi. O'rik qaynagan suvda yoki eritmada blanshirlanadi. Bu ish oltin gugurt bilan dudlash va quritishni tezlashtiradi. Mevalar darhol taxta patnislarga bir qator qilib qo'yiladi va dudlash kamerasiga yuboriladi. Dudlash uchun 2 kg

FIZIKA-TEXNIKA

mahsulotga 4-5 gram oltingugurt va 1,5 soat vaqt kerak boladi. Dudlangan mevalar ochiq joyda 3-4 kun quritiladi. Oradan 2-3 kun o'tgach mevalar ag'darib qo'yiladi. Mevalar bir tekis qurib po'sti ajralmaydigan bolganda quritish tugallanadi.

Hozirgi davrda iste'mol maxsulotlarini quritishning eng muxim va istiqbolli usullaridan biri infraqizil quritish usuli hisoblanadi. Uning elektrenergiyani ishlatalishi hisobiga tannarxning oshishi kabi kamchiliklar mavjuddir. Infracizil nurlanishdan foydalanish sabzavot va xo'l mevalar, don va boshqa iste'mol qilinadigan va qilinmaydigan mahsulotlarni hozirgi zamonda eng istiqbolli quritish usuli hisoblanadi. Mahsulotlarni shunday texnologiya usuli bilan quritish tayyorlangan quruq maxsulotning 75-90 % tarkibida vitaminlar va biologik faol moddalarni saqlanib qolishiga imkon beradi.

Maxsulotni bu usulda quritish ikki xil yengillik tug'diradi: birinchidan, bunday haroratda mahsulotlar imkon boricha saqlanadi, to'qimalar buzilmaydi, vitaminlar yo'qolib ketmaydi, qand moddasi karamel holatiga kelmaydi; ikkinchidan past haroratlar quritish moslamalarini qizitib yubormaydi, ya'ni issiqlik devorlar, ventelyatsiya orqali chiqib ketmaydi. Xuddi shu vaqt ichida infraqizil nurlar 40 - 60 °C haroratda mahsulotni yuqori qismidagi mikrofloralarni yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Infracizil quritish usulining afzalligi-texnologiyani tejamkorligi, maxsulotning sifatliligi va quritishning tezligidadir. Oxirgi yillar Rossiyaning turli zavodlarida sanoatda qo'llaniladigan «Feruza», «Russkaya trapeza», Ukrainianing «Sadochek», Yangi Zellandiyaning «Izidri» kabi korxonalarida zamonaviy quritgich moslamalar ishlab chiqarilmoqda.

Funktional keramik infraqizil nurlanishda qishloq ho'jalik mahsulotlarini quritishda: funktional keramika ta'sirida infraqizil nurlanishning to'lqin uzunligi o'zgartirilib, nurlanish to'lqin uzunligi suvni nurlanish yutish spektriga mos kelishi ta'minlanadi. Quritilayotgan mahsulot nurlanish ta'sirida tovar ko'rinishi hamda tarkibning 90 % dan ortiq miqdorda mikro va makroelementlarning saqlanishi kuzatiladi.

NATIJA VA MOHOKAMA

1- jadval

Infracizil quritish natijalari

| Mahsulot nomi | Qurish vaqtidagi mahsulot qatlami balandligi, (sm) | Qurish vaqtি, (soat) | Qurishdan avvalgi mahsulot vazni, (kg) | Qurigandan so'ng mahsulot vazni, (kg) | Qurish jarayonida yo'qotilgan vazn, (kg) | Qurish jarayonida yo'qotilgan vazn, (%) | Qurish jarayonida mahsulotning qolgan vazni, (%) |
|--------------------------------|--|----------------------|--|---------------------------------------|--|---|--|
| Sabzovot va ko'katlarda | | | | | | | |
| Piyoz | 4-5 | 10-12 | 4 | 2.4 | 1.6 | 60.2 | 39.8 |
| Sabzi (somon shaklda) | 4-5 | 6-7 | 3 | 1.8 | 1.2 | 60.0 | 40.0 |
| Bulg'or qalampir (golland nav) | 4-5 | 7-8 | 2 | 0.92 | 1.08 | 46.0 | 54.0 |
| Ukrop | 4-5 | 3-3.5 | 6 | 1.8 | 4.2 | 30 | 70 |
| Kashnich | 4-5 | 3-4 | 6 | 1.8 | 4.2 | 30 | 70 |
| Mevalar bo'yicha | | | | | | | |
| Olcha | 3.5 | 36 | 3.5 | 2.1 | 1.4 | 60.0 | 40.0 |
| Olma | 4 | 10 | 3.5 | 1.66 | 1.84 | 47.5 | 52.5 |
| Nok | 3.8 | 14 | 3.5 | 2.27 | 1.23 | 65.1 | 34.9 |
| Banan | 3.6 | 14 | 6.0 | 3.69 | 2.31 | 61.6 | 38.4 |


Natijalarni tahlil qilsak, sabzovotlar tarkibidagi suvning 16-17 % dan 60-61 % atrofida bo'lar ekan. Vazn yo'qotilishi bo'yicha esa 17-18 % dan 50-51 % oraliqg'ida bo'lishligi aniqlandi.

Natijalarini tahlil qilsak, mevalar tarkibidagi suvning 45 % dan 62 % atrofida bo'lar ekan. Vazn yo'qotilishi bo'yicha esa 42 % dan 67 % oraliqg'ida bo'lishligi aniqlandi.

2-jadval

Mevalarni quritish jarayonida undagi namlik miqdorining ko'rsatkichlari

| Maxsulot | Quritish harorati, °C | Quritishdan oldingi tayyoragarlik | Quritish davomida (minutda) qolgan namlik miqdori, % gacha | | | | |
|----------|-----------------------|-----------------------------------|--|----|----|----|----|
| | | | 100 | 80 | 60 | 40 | 20 |
| Olma | 100 | Ishlov berilmasdan | 42 | 51 | 59 | 74 | 84 |
| | 100 | Blanshirlanib | 33 | 47 | 52 | 68 | 76 |
| | 55-60 | Infraqizil nurlanish | 25 | 34 | 41 | 53 | 67 |
| Sabzi | 100 | Ishlov berilmasdan | 37 | 49 | 51 | 72 | 82 |
| | 100 | Blanshirlanib | 34 | 47 | 54 | 71 | 82 |
| | 55-60 | Infraqizil nurlanish | 21 | 32 | 39 | 51 | 72 |
| Piyoz | 100 | Ishlov berilmasdan | 28 | 41 | 54 | 69 | 91 |
| | 100 | Blanshirlanib | 23 | 37 | 49 | 64 | 87 |
| | 55-60 | Infraqizil nurlanish | 18 | 31 | 44 | 59 | 84 |




1-rasm. Quritishda og'irlilik kamayishi

Omchorlar bir qavatli to'g'ri burchak shaklida va ustiga yoki yerdan chuqurroq qilib tayyorlanib, betondan yoki g'ishtdan quriladi. Har bir mahsulot turini saqlash usullarini tanlashda joy sharoiti va mavjud omchor hajmlari inobatga olinishi zarur. Turli ob-havo sharoitlariga bog'liq ravishda kartoshka saqlash uchun uyum va xandaq o'lchamlari turlicha bo'lishi kerak.

Vaqtinchalik omchorlarni tashkil etishda mahsulot turi va miqdoriga ko'ra qancha uyum zarurligi, ulami tashkil etish tadbirlari, ularga mahsulotlarni joylashtirish va bular turli xil qishloq xo'jaligi mahsulotlarida turlicha bo'ladi.

FIZIKA-TEXNIKA



2-rasm. Quritilishda og'irlik o'zgarishi

XULOSA

Maxsulotlarni qayta ishlashni yo'lga qo'yish xo'jalik yoki tadbirkorlar atrofida xomashyo bazasining yetarli bo'lismiga, mavjud xomashyo hajmidan kelib chiqqan holda xarid qilib, o'rnatiladigan qayta ishlash uskunasining quvvatini to'g'ri tanlashga e'tibor qaratish kerak. Infracizil quritish qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasining samarali vakili hisoblanadi.

REFERENCES

- Рахмонбердиевич, Р. Ф. (2022). Инфрақизил қурилмада қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини қутиш самародорлиги. *Scientific Impulse*, 1(3), 239-242.
- Рахмонбердиевич, Р. Ф., & Юсупова, Ф. К. (2023). Кутиш қурилмасининг техник катталикларини асослаш *o'zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(15), 84-88.
- Raxmonberdievich, R. G., & Komilovna, Y. F. (2023). Analysis of some indicators in a conveyor belt dryer. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 424-430.
- Onarqulov, K. E., Rakhmatov, G., & Xoldorov, M.B.O.G.L. (2023). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini infraqizil qurutish va sifatlari saqlashdagi ayrim tahlillar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 295-300.
- Gulomjon, R. (2022). Инфрақизил нурланиш асосидаги синон қурилманинг техник катталикларини асослаш. *Физико-технологического образования*, (6).
- Rahmonberdievich, R. G. (2016). Physical principles of dry vegetables fruit products under the influence of Infrared. *European science review*, (9-10), 203-205.
- Рахматов, Г. Р. (2018). Некоторые физические методы сушки сельскохозяйственной продукции. In *инновационное развитие и потенциал современной науки* (pp. 94-98).
- Рахматов, Г. Р. (2016). Влияние импульсного ИК-излучения на процесс сушки и качество волокна хлопка-сырца. *European research*, (10 (21)), 24-25.
- Онаркулов, К., & Рахматов, Г. Намлини камайтиришда айрим усууллар. Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги термиз давлат унивэрситети, 293.
- Rakhmatov, G. R. (2016). Installation of the IR dryer of raw cotton. *European Science Review*, (5-6), 185-186.
- Рахматов, Г.Р. Инфракрасная технология сушки сельскохозяйственной продукции. ўзбекистон республикаси олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги Захириддин Мухаммад Бобур номидаги Андижон давлат унивэрситети, 239.
- Gulomjon, R. (2022). Инфрақизил нурланиш асосидаги синон қурилманинг техник катталикларини асослаш. *Физико-технологического образования*, (6).
- Рахматов, Г. Р. (2017). *Некоторые изменения в сушке волокна* (Doctoral dissertation, Белорусско-Российский университет).
- Рахматов, Г. Р. (2023, November). Анализ показателей качества хлопка инфракрасной сушки. In *Fergana state university conference* (pp. 112-112).
- Abduqodir, K. (2023, November). Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda iq-nurlanishlardan foydalanish zaruriyat. In *Fergana state university conference* (pp. 115-115).
- Рахмонбердиевич, Р. F. (2023, November). Кутиш жараёнининг физик-кимёвий моҳияти. In *Fergana state university conference* (pp. 118-118).
- Rakhmatov, G., & Kayumov, A. M. (2024, March). Analysis of process intensity and quality indicators of cotton drying using infrared radiation. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

18. Kayumov, A. M., & Rakhmatov, G. (2024, March). Technology of cotton layer leveling in the infrared drying device. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.
19. G.Rakhmatov "Theoretical basis for ensuring a cotton layer on a conveyor belt" International scientific journal science and innovation special issue april,2024|issn: 2181-3337|scientists.uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10933105>
20. Kayumov, A. M., Eshmatov, B., & Rakhmatov, G. (2024). Analysis of changes in cotton moisture under the influence of infrared (IR) radiation. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 93, p. 02013). EDP Sciences.
21. Abduqodir, K. (2023, November). Qishloq xo 'jalik mahsulotlарини qayta ishlashda iq-nurlanishlardan foydalanish zaruriyati. In *Fergana state university conference* (pp. 115-115).
22. Рахмонбердиевич, Р. Ф. (2023, November). Қуритиш жараёнининг физик-кимёвий моҳияти. In *Fergana state university conference* (pp. 118-118).